

№ 132/1

2025y. 19 dekabr

**“O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida
korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida ichki nazorat tizimini samarali tashkil etish, korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta‘minlash hamda sohaga oid ichki qoidalarni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga moslashtirib borish maqsadida, bank Boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqilgan ichki qoidalarining amaldagi qonunchilikka mosligini ta‘minlash bo‘yicha Ekspert guruhining 2025-yil 18-dekabrda 95-sonli bayoni ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti” **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. **Ichki nazorat va komplayens departamenti** (A. Xaitov) korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bilan bog‘liq ishlarni mazkur uslubiyot talablari asosida amalga oshirilishini ta‘minlasin.

4. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan bank Boshqaruvining 2023-yil 23-noyabrda 126/4-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. **Ijro nazorati departamenti** (F. Kurbanov) ushbu qaror nusxasini bank markaziy apparatining barcha tarkibiy bo‘linmalari va bankning mintaqaviy hamda bank xizmatlari markazlariga ma‘lumot va ijro uchun yetkazilishini ta‘minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish **Boshqaruv Raisi o‘rinbosari v.b. F. Ruziyev** zimmasiga yuklansin.

Boshqaruv Raisi v.b.**Sh. Atabayev**

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti

Mazkur uslubiyot O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni, 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustdagi 3383-raqam bilan ro'yxatga olingan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti"ga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida (keyingi o'rinlarda – Bank) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tartibini belgilaydi.

1-§. Umumiy qoidalar

1. Bankning faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Bankning korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash quyidagilar ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur;

korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati;

korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri.

3. Ushbu uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiyaviy xavf-xatar – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi – Bankdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tuziladigan va bank funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro'yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o'ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar lavozimlarini o'z ichiga oluvchi birlashgan hujjat;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash – bank faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo'yicha faoliyat;

qoldiq xavf-xatar – aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

maxsus bo'linma – bankning Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati;

“E-anticor.uz” elektron platformasi – O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan davlat idoralarining korruptsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyati samaradorligi reyting baholash platformasi.

4. Bank tomonidan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili 1-martga qadar amalga oshiriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan bankning korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo'nalishda kamchiliklarning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar berilishi mumkin.

2-§. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish

6. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bankning barcha tarkibiy va hududiy bo'linmalarini qamrab olishi lozim.

Bunda, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

7. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

Bankning korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish;

Bankning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihasini ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida Bankning korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihasini takomillashtirib borish.

3-§. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi

8. Maxsus bo'linma tomonidan Bank faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) tavsifi ushbu uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

9. Bank faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korruptsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

10. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

bank faoliyatining vazifa va funksiyalarining huquqiy asosi;


ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan, xizmat tekshiruv materiallari;

odob-axloq komissiyasi majlislarining yig'ilish bayonnomalari;

korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari;

Maxsus bo'linma tomonidan bank faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnoma, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

11. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:



bank faoliyati to'g'risidagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlar (xabarlar) va statistik ma'lumotlar;

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan bank faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan, sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

12. Maxsus bo'linma tomonidan bankning faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

Bank xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik;

Bank tomonidan faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun'iy to'siqlarning mavjudligi;

o'z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish;

hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib (qasddan) yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;

vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik kabi holatlarning mavjudligi.

13. Bank faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o'lchovlarda baholanadi:

past;

o'rta;

yuqori.

14. Maxsus bo'linma tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

4-§. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini bartaraf etish choralari

15. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

ichki qoidalar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va bank faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

Bank faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tartibga solish choralari ko'rish;

Bank xodimlari va jismoniy shaxslar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani maksimal darajada cheklash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida Bank tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarni, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo'q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

Bank tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o'tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ'ibot ishlarini amalga oshirish;



xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarga har kuni, o'zaro va to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish.

Bank korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

16. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha mazkur uslubiyotning 14-bandida belgilangan choralardan kelib chiqib, qoldiq xavf-xatar darajasini baholash mazkur uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

17. Maxsus bo'linma tomonidan mazkur uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda bank markaziy apparati va mintaqaviy hamda bank xizmatlari markazlari korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalari ishlab chiqiladi.

18. Maxsus bo'linma tomonidan bank faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida bankning umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va "E-anticor.uz" elektron platformasiga har yili 1-fevralga qadar kiritiladi.

19. Maxsus bo'linma tomonidan "E-anticor.uz" elektron platformasida joylashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga asosan avtomatik ravishda quyidagi hujjatlar shakllantiriladi:

Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi;

Bankning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlari ro'yxati.

20. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olishda o'rta va yuqori xavf darajasi lavozimidagi xodimlarni uslubiyotning 5-ilovasiga muvofiq rotatsiya qilish davriyligi orqali belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bunda, Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan bankning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori va o'rta bo'lgan lavozimlari ro'yxatini Xodimlarni boshqarish departamentiga taqdim etadi.

21. Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasini diagnostikadan o'tkazish orqali past deb baholangan xodimlarga nisbatan rotatsiya amaliyoti amalga oshirilishi mumkin.

Bankning "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida xodimlarni korporativ etika va odob-axloq qoidalariga rioya etilishi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil etish to'g'risida" yo'riqnoma talabidan kelib chiqib takroriy sinovlar natijasi ko'ra xodimning korrupsiyaga barqarorlik darajasi past deb baholanishi, mazkur lavozimda mehnatga oid munosabatlarni davom ettirishiga monelik qiluvchi holat hisoblanadi hamda xodim korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past bo'lgan boshqa lavozimga rotatsiya qilish choralari ko'riladi.

5-§. Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi

22. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan "E-anticor.uz" elektron platformasida joylashtirilgan Bankning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari asosida avtomatik ravishda korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri shakllantiriladi.

23. Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri loyihasi O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun "E-anticor.uz" veb-saytiga joylashtiriladi.

24. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi jamoatchilik muhokamasi natijalari bo'yicha umumlashtirilgan takliflarni bankka yuboradi.

25. Maxsus bo'linma O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida bankning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi loyihalarini takomillashtiradi.

26. Bank boshqaruvi raisi yoki uning o'rinbosari har yili 1-martga qadar korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini "E-anticor.uz" elektron platformasi orqali tasdiqlaydi.

6-§. Yakuniy qoidalar

27. Mazkur uslubiyot talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

28. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

29. Mazkur uslubiyot Bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Ichki nazorat va komplayens
departamenti direktori**




A. Xaitov



O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat
Xalq bankida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
baholash uslubiyotiga 1-ilova

**Xalq bankda tarkibiy tuzilmalari va mustaqil boshqarmalari
faoliyatida vazifa va funksiyalarining
TAVSIFI**

T/r	Funksiya nomlanishi	Funksiya doirasida bajariladigan jarayon	Jarayonlarni amalga oshirish uchun javobgar shaxslar (F.I.Sh. lavozimi)
1. Xalq banki			
1.1. Bankning tarkibiy bo'linmasi			
1.1.1			



O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat
Xalq bankida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
baholash uslubiyotiga 2-ilova

**Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo'yicha
MEZONLAR**

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi	Mezonlar
Yuqori*	Bankning faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan
	Bankning faoliyati (vazifa va funksiyasi) tartibga solinmagan
	Nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	Bankning faoliyati (vazifa va funksiya) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi
	Bankning faoliyatini (vazifa va funksiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan)
O'rta*	Bankning faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	Bankning faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan
	Nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	Bankning faoliyatini (vazifa va funksiyani) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi
	Bankning faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
Past**	Bankning faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq avtomatlashtirilgan
	Bankning faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq tartibga solingan
	Jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas
	Bankning faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi
	Korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud emas

*Maxsus bo'linma tomonidan bank faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan xavf-xatarlarning yuqori yoki o'rta darajada deb baholash boshqaruv raisi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

**Bank faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashda, agarda past darajadagi mezonlarning biri mavjud bo'lsa, o'sha korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past darajada deb baholanadi.




O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat
Xalq bankida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
baholash uslubiyotiga 3-ilova

“TASDIQLAYMAN”
O'zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat
Xalq banki Boshqaruvi
Raisi

202__-yil “__” ____

**Xalq bankning faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning
XARITASI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korrupsiyaviy xavf- xatarning darajasi (past, o'rta, yuqori)	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan lavozim	Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizm	Korrupsiyaviy xavf- xatarlarni bartaraf etish choralari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o'rta, yuqori)	Mas'ul ijrochilar
1.	1. Tarkibiy bo'linmaning nomi*						
	1. Tuzilma funktsiyasi						
	1. Funksiyaga oid munosabat						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat
Xalq bankida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
baholash uslubiyotiga 4-ilova

Xalq bankning korrupsiyaga qarshi kurashish

DASTURI

T/r	Korrupsiyaviy xavf- xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
1.				
2.				
...				



O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat
Xalq bankida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
baholash uslubiyotiga 5-ilova

**Bankning markaziy apparati, mintavqaviy va bank xizmatlar markazlarida
korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori va o'rta bo'lgan lavozimlardagi
rahbar-xodimlarni rotatsiya qilish davriyligi
JADVALI**

T/r	*Reyting ko'rsatkichi (ball)	Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi Yuqori lavozimlarni rotatsiya qilish davriyligi	Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi O'rta lavozimlarni rotatsiya qilish davriyligi	Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi Past lavozimlarni rotatsiya qilish davriyligi
1.	76-100	1-yilda	2-yilda	5-yilda
2.	51-75	2-yilda	3-yilda	7-yilda
3.	26-50	4-yilda	5-yilda	-
4.	6-25	5-yilda	7-yilda	-
5.	0-5	-	-	-

Reyting ko'rsatkich ballari izohda keltirilgan holatlarning birida va/yoki bir nechtasida ishtiroki mavjud bo'lgan xodimning lavozim majburiyatidan kelib chiqib, faqatgina bevosita bo'ysunuvchi tarkibiy bo'linma, mintaqaviy markaz, bank xizmatlari markazi rahbarlariga nisbatan qo'llaniladi.

Rahbar lavozimlardagi xodimlarni rotatsiya qilish davriyligi jadvali Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan bankning Ichki nazorat, Ichki audit, Risk menejment, Xodimlarni boshqarish departamentlari va boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar asosida har yil yakuni bo'yicha keyingi yilning 1-martiga qadar jamlanib shakllanadi.

***Izoh:** Reyting ko'rsatkichi bir yil davomida bankning quyi bo'linmalarda (Tarkibiy tuzilma, mintaqaviy va bank xizmatlar markazi) aniqlangan 1 ta va undan ko'p holatlardan kelib chiqib, manfaatlar to'qnashuvi holatlari – **20 ball**, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holatlar – **30 ball**, o'zlashtirish va firibgarlik – **30 ball**, xodim xatti-harakati yuzasidan xizmat tekshiruvlari (anonim murojaatlar, shikoyatlar, ichki tahlil, ichki qoidalarining buzilishi) – **15 ball**, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida targ'ibot-tashviqot ishlari o'tkazmaslik (Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid xodimlarni o'qitish, sayyor qabul, targ'ibot materiallari bilan ta'minlanganlik va h.k.) – **5 ball**.